

# 2025

-MOLIYAVIY  
YIL UCHUN  
BIZNES REJA

## Mundarija

|                                                              |    |
|--------------------------------------------------------------|----|
| Muqaddima.....                                               | 3  |
| 2025-Moliyaviy yil uchun bozor prognozi .....                | 5  |
| 2025-yil uchun maqsadlar .....                               | 7  |
| Aktivlar sifatini yaxshilash .....                           | 8  |
| Barqarorlik va raqamli rivojlanishni ta'minlash.....         | 9  |
| 1-ilova.....                                                 | 11 |
| 2025-moliyaviy yil balans ko'rsatkichlari .....              | 11 |
| 2-ilova.....                                                 | 12 |
| 2025-moliyaviy yil moliyaviy natijalar ko'rsatkichlari ..... | 12 |
| 3-ilova.....                                                 | 13 |
| 2025-moliyaviy yil uchun operatsion xarajatlar .....         | 13 |
| 4-ilova.....                                                 | 14 |
| 2025-moliyaviy yil uchun kapital xarajatlar .....            | 14 |


## Muqaddima

Mamlakatimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va moliya-bank sohasidagi islohotlar ko'p jihatdan banklar faoliyatini yangi darajaga ko'tarilishiga sabab bo'ldi. AT Xalq banki tomonidan ham zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etishda yangi formatga o'tish maqsadida keng qamrovli transformatsiya jarayonlari izchil amalga oshirilmoqda.

Bankning strategiyasiga muvofiq qator chora-tadbirlar, jumladan raqamlashgan zamonaviy bank biznesi hamda xizmatlarini joriy qilish, korporativ boshqaruvni, aktivlar sifati va moliyaviy inklyuzivlikni yaxshilash bo'yicha bir qator vazifalar bajarildi. 2024-yilda ham operatsion xarajatlarni optimallashtirish hamda bankning barcha biznes jarayonlari va xizmatlari mijozlar manfaatiga xizmat qilishi maqsadida bankning barcha filiallar "Yagona MFO" tizimiga to'liq o'tildi, kassa tarmoqlari markazlashtirildi.

Bugungi kunda Xalq banki 259 ta Bank xizmatlari markazlari, 609 ta ko'chma (sayyor) kassalar, 246 ta xalqaro pul o'tkazmalari, 241 ta valyuta ayirboshlash shoxobchalari, 10 ta bankdan tashqari kassalar va 3 mingdan ortiq bankomatlardan iborat infratuzilmasi aholi va tadbirkorlik sub'ektlariga xizmat ko'rsatmoqda.

2024-yil 1-Oktabr holatiga




AT Xalqbank BXMning viloyatlar kesimida joylashuvi (1-rasm).

AT Xalq banki chakana biznes faoliyati orqali Respublikamiz aholisining qariyb uchdan bir qismiga xizmat ko'rsatib kelmoqda. Yani bankning mijozlari bazasi 11.9 mln nafarni tashkil etib, shundan 11.7 mln nafari jismoniy shaxslar, 127.9 ming nafari yakka tartibdagi tadbirkorlar va 139.6 ming nafari yuridik shaxslardir.


Bugungi kunda bank pensiya va nafaqa mablag'larini tarqatish, fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimlarini yurituvchi agent sifatida, shuningdek davlatning ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarida faol ishtirok etish bilan birga tijoriy chakana va kichik biznes mahsulotlar mahsulotlarini taklif etishda ham ilg'or banklar ichida o'rin olmoqda, xususan ipoteka va ta'lim

kreditlari, tadbirkorlik uchun iklyuziv bank mahsulotlari taklif qilishda ham yetakchilik qilib kelmoqda.


Amalga oshirilgan tadbirlar natijasida 2021 yildan 2024 yil 1 oktabr holatiga bankning kredit qo'yilmalari 12.2% ga (1-grafik), aktivlar 15% ga (2-grafik), umumiy kapitali 14% ga (3-grafik) va depozitlar 24.5% ga (4-grafik) o'rtacha yillik o'sish (CAGR<sup>1</sup>) tendentsiyasini qayd etdi.




Kredit qo'yilmalarining yillik o'sish sur'ati (1-grafik).



Aktivlarning yillik o'sish sur'ati (2-grafik).



Umumiy kapitalning yillik o'sish sur'ati (3-grafik).



Depozitlarning yillik o'sish sur'ati (4-grafik).

■ AT Xalq banki ■ Davlat banklari ■ Respublika bank tizimi

Bank o'zining - "O'zbekiston xalqi va tadbirkorlarini moliyaviy maqsadlariga erishishida qo'llab-quvvatlovchi yetakchi bank bo'lish" - bosh maqsadidan kelib chiqib, aholi va tadbirkorlarga qulaylik yaratishda, biznes jarayonlarini optimallashtirishda, xizmatlarni raqamlashtirishda davom etadi. Bankda raqamli xizmatlar ko'lami ham kengayib bormoqda, qisqa davrda bankning yangi Xazna mobil ilovasi aholi o'rtasida keng qo'llaniladigan ilova sifatida tanilib, 2024 yil 9 oyi ichida onlayn depozitlar 2 barobardan ortiq o'sib 275 mlrd so'mga yetdi, onlayn mikroqarzlar esa 3 barobardab ortiqqa o'sib 1.8 trln so'mdan oshdi.

<sup>1</sup> CAGR =  $\left(\frac{V_n}{V_1}\right)^{\frac{365}{\text{kunlar farqi}(1368)}} - 1$

Bank asosiy ko'rsatkichlarining Respublika bank tizimidagi ulushi va o'rni 2024-yil 1-oktabr holatida quyidagicha qayd etildi:

2024-yil 1-Oktabr holatiga

|                         | Bozordagi ulushi | Bozordagi o'rni |
|-------------------------|------------------|-----------------|
| <b>Aktivlar</b>         | 6%               | 7               |
| <b>Kredit portfeli</b>  | 5,6%             | 7               |
| <b>Depozit portfeli</b> | 8,1%             | 3               |
| <b>Kapital</b>          | 7,3%             | 4               |


Respublika bank tizimida AT Xalq bank asosiy ko'rsatkichlarining ulushi va o'rni (1-jadval).

Xalq banki dunyoning yetakchi reyting agentliklaridan "Fitch Ratings" bilan doimiy aloqada bo'lib, uning o'z faoliyatidagi dolzarb o'zgarishlardan xabardor qilib boradi. 2025-yilda ham bank ushbu agentlik tomonidan baholanishda davom etadi. 2024 yilda bank kredit reytingi "Fitch Ratings" xalqaro reyting agentligi tomonidan "BB-/B" – "Barqaror" darajasida baholandi.

Bankning 2025-moliyaviy yil biznes-rejasi 2023-2025 yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan asosiy yo'nalishlarga muvofiq tayyorlangan bo'lib, rentabellik, korporativ boshqaruv, aktivlar sifati va moliyaviy inklyuzivlikni yaxshilashga, raqamli mahsulotlarni rivojlantirishga qaratilgan.

## 2025-Moliyaviy yil uchun bozor prognozi

O'zbekiston Respublikasining "2025 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi qonuni va Fuqarolar uchun 2025 yil byudjet loyihalariga ko'ra, 2025-yilda iqtisodiy o'sish sur'ati 6,0 foizni tashkil qilishi kutilmoqda<sup>2</sup>.



2023-2027-yillarda YaM hajmi va o'sish sur'atlari (5-grafik).

Markaziy bankning 2024-yil 31-oktabrdagi "Pul-kredit siyosatining 2025-yil va 2026-2027-yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari"ning konseptual loyihasi asosiy ssenariysiga ko'ra 2024-yildagi yillik inflyatsiya darajasi 9 foiz bo'lishi kutilayotgani, umumiy inflyatsiya 2025-yilda 6-7 foiz bo'lishi kutilayotganligi qayd qilingan. Ushbu ssenariy ichki va tashqi sharoitlar joriy sur'atlarda rivojlanishda davom etishi, xususan global inflyatsiyaning pasayib borishi, jahonda

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining byudjet loyihasi ([https://api.mf.uz/media/filestore/qonun\\_loyiha.pdf](https://api.mf.uz/media/filestore/qonun_loyiha.pdf), [https://api.mf.uz/media/document\\_files/Budjet\\_P\\_25\\_uz.pdf](https://api.mf.uz/media/document_files/Budjet_P_25_uz.pdf)).

iqtisodiy o'sish sur'atlarining ijobiy va xalqaro bozorlarda xomashyo narxlarining nisbatan yuqori darajada saqlanib qolishi, mamlakatda investitsion talabning oshib borishi hamda tarkibiy o'zgarishlar va islohotlarning faol davom ettirilishi shartlari asosida amalga oshirilgan.

Asosiy ssenariy bo'yicha yana quyidagilar - foiz stavkalarini pasaytirish sikli davom etishi, barqaror tashqi talab hisobiga eksport hajmi o'sib borishi, pul o'tkazmalari yillik o'rtacha 10-15 foizga oshib borishi, budget tashkilotlarida ish haqlari inflyatsiya darajasida indeksatsiya qilib borilishi, aholiga ajratiladigan kreditlar o'sishi sur'ati muvozanatlashi, hamda 2025 yilning aprel oyidan tabiiy gaz va elektr energiyasi narxi o'sishi mumkinligi qayd qilingan.

O'zbekistonning asosiy savdo hamkorlaridagi yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari va jahon narxlarining qulay konyunkturasi eksport tushumlari va pul o'tkazmalari hajmlarining oshishiga olib kelishi kutilmoqda. Ushbu tendensiyalar milliy valyutaning almashuv kursining barqarorlashishiga va bank tizimi likvidligining yaxshilanishiga hissa qo'shadi. Bank tizimi umumiy likvidligi, jamg'armalar va kreditlar hajmi dinamikasi nisbatan qat'iy pul-kredit sharoitlari saqlanib qolayotganini ko'rsatmoqda, bu esa aholining so'mdagi jamg'arish jozibadorligini oshirib, omonatlar hajmini yanada kengaytiradi.

2025-2026 yillarda bank tizimi likvidligining prognozi joriy profitsit holatining saqlanib qolishini ta'kidlanmoqda. Omillar kesimida, Markaziy bankning qimmatbaho metallar xaridi oltin narxining joriy darajada saqlanib qolishi sharti va oltin qazib chiqarish hajmining bosqichma-bosqich oshib borishi bo'yicha kutilmalar hisobiga likvidlikka oshiruvchi ta'siri yuqori bo'lishi taxmin qilinmoqda.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha kutilmalarni quyidagi jadvaldan ko'rish mumkin.

|                                       | <b>2023<br/>haqiqatda</b> | <b>2024<br/>kutilma</b> | <b>2025<br/>kutilma</b> |
|---------------------------------------|---------------------------|-------------------------|-------------------------|
| Yillik inflyatsiya darajasi           | 8.8%                      | 9%                      | 7%                      |
| YaIMning real o'sishi                 | 6.3%                      | 6%                      | 6%                      |
| Sanoat ishlab chiqarishning o'sishi   | 6%                        | 6.9%                    | 6.1%                    |
| Qishloq xo'jaligi sektorining o'sishi | 4,1%                      | 4.1%                    | 4.1%                    |
| Bozor xizmatlarining o'sishi          | 14.1%                     | 14%                     | 14.5%                   |

*Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar<sup>3</sup> (2-jadval).*

Jadvalda ko'rsatilgan iqtisodiy ko'rsatkichlar – yillik inflyatsiya, real YaIM o'sishi – Respublikaning kelgusi yillardagi iqtisodiy rivojlanish dinamikasini belgilamoqda. 2023-yilda yillik inflyatsiya darajasi 8.8 foiz bo'lgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 7 foizga yaqinlashishi kutilmoqda. Real YaIM o'sishi 2023-yildagi 6.3 foizdan keyin, 2024-2025 yillarda 6 foizda saqlanishi prognoz qilinmoqda. Bu esa iqtisodiy barqarorlik va aholi xarid qobiliyatining mo'tadil o'sishini ifodalaydi.

Yuqori investitsion faollik va ishlab chiqarish sur'atlari yil oxiriga qadar saqlanishi kutilmoqda. 2024-yilning ikkinchi yarmida ham iqtisodiy o'sish barqaror bo'lishi, yil yakunida real YAIM o'sishi 6 foizgacha yetishi prognoz qilinmoqda.

<sup>3</sup> Fuqarolar uchun byudjet 2025 loyiha ([https://api.mf.uz/media/filestore/Budjet\\_P\\_25\\_uz.pdf](https://api.mf.uz/media/filestore/Budjet_P_25_uz.pdf))

## 2025-yil uchun maqsadlar

Mazkur biznes reja bankning strategiyasiga muvofiq oldingi yillar davomida amalga oshirilgan ishlarni mantiqiy davomi sifatida ishlab chiqilgan. 2025-moliyaviy yil uchun balans ko'rsatkichlari bo'yicha rejalar 1-ilovada, moliyaviy natijalar rejasi 2-ilovada hamda kelgusi yil uchun xarajatlar haqida ma'lumotlar 3-4-ilovalarda keltirilgan.

So'nggi yillarda Xalq bankida ko'plab ijobiy o'zgarishlar amalga oshirdi, lekin shu bilan birga hal qilinishi zarur bo'lgan masalalar ham mavjud. Xususan, axborot texnologiyalari infratuzilmasini, joylarda mijozlarga xizmat ko'rsatish sharoitlarini yaxshilashda davom etish, tavakkalchiliklarni boshqarish tizimini rivojlantirish va boshqalar shular jumlasidandir. Ushbu muammolarni hal qilish, moliyaviy barqarorlik va moliyaviy inklyuzivlikka e'tibor qaratish bilan birga sof foydani oshirishga qaratilgan. 2025-yilga asosiy maqsadlar quyidagilardan iborat:

1. Tijoriy operatsiyalar ulushini oshirib borish
2. Bankning asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha barqaror o'sish darajasini ta'minlash
3. Masofaviy xizmatlar ko'lamini oshirish
4. Moliyaviy inklyuziv xizmatlar xajmini oshirish

2025-yilda ham Bank 2023-yilda boshlangan strategik tashabbuslarni amalga oshirishni davom ettiradi, xususan:

- xizmat ko'rsatish tarmoqlarini yirik eski binolardan, ixcham, qulay va zamonaviy bank xizmatlari markazlariga ko'chirish;
- mobil ilovani yanada takomillashtirish va targ'ib qilish, muqobil kanallar orqali amalga oshiriladigan xizmatlar xajmini oshirish;
- kassa va bek-ofis funksiyalarini markazlashtirishni yakunlash;
- kassa tarmoqlari va o'ziga o'zi xizmat qilish uskunalari samaradorligini oshirish;
- jozibador depozitlar ishlab chiqib onlayn depozitlar ulushini oshirish;
- chakana mijozlar uchun: pensionerlar, ish haqi loyihasi ishtirokchilari va yuqori daromadli mijozlar uchun mos keladigan mahsulotlar orqali segmentli yondashuv. Ipoteka va mikroqarzlarni oshirish va ularni chakana daromad olishning asosiy omiliga aylantirish;
- hodimlarni rag'batlantirish tizimini muvofiqlashtirib borish orqali sotuvlar xajmini oshirish;
- 2025 yilda yashil iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash, energo tejamkorlik choralari ko'rish orqali "Energiya samaradorligi"ga erishish, elektr sarfini maqbullashtirib borish;
- muammoli kreditlar (NPL) hajmining maqbul darajasini ta'minlash.

Shu bilan birgalikda 2025 yil bank uchun barcha loyihalarning muhim qismi bo'lgan informatsion texnologiyalar va raqamli transformatsiya, mijozlarning o'zgaruvchan talablariga va bozorga tezroq javob berish qobiliyatini ta'minlaydigan transformatsiyalarni amalga oshirish yili bo'lishi kutilmoqda. O'zgarishlarning amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida bank o'zining texnik va tashkiliy muhitini jiddiy ravishda yaxshilashda davom etadi.

### 2025-yil byudjetining asosiy ko'rsatkichlari (3-jadval).

| Ko'rsatkich               | 2025 yil reja,<br>mlrd so'm | Ko'rsatkich | 2025 yil reja |
|---------------------------|-----------------------------|-------------|---------------|
| <b>Aktivlar</b>           | 53 942                      | <b>ROE</b>  | 5.1%          |
| <b>Kreditlar</b>          | 34 782                      | <b>ROA</b>  | 1.1%          |
| <b>Majburiyatlar</b>      | 42 681                      | <b>NIM</b>  | 6.7%          |
| <b>Kapital</b>            | 11 261                      | <b>CIR</b>  | -59%          |
| <b>Operatsion daromad</b> | 4 014                       | <b>CAR</b>  | 21%           |
| <b>Sof foyda</b>          | 534                         | <b>LCR</b>  | 180%          |

## Aktivlar sifatini yaxshilash


2023-2024 yillarda Bank tomonidan muammoli kreditlar (NPL) ulushini kamaytirish maqsadida bankning strategiyasi doirasida bir qator choralar amalga oshirildi, xususan bunday kreditlar bilan ishlash bo'yicha alohida kompleks va tarkibiy tuzilmalar tashkil etildi, Soft va Hard collection xizmatlari faoliyati yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, NPL dinamikasini onlayn monitoring qilish uchun hisobotlar avtomatlashtirildi, yangi muammoli kreditlarning oldini olish va kreditlarni qaytarish jarayoni samaradorligini oshirish maqsadida tashkil etilgan Soft-collection xizmati kredit qarzdorliklarni undirilishida samarali faoliyat amalga oshirmoqda. 2024 yil 9 oyi mobaynida 5 mlnga yaqin qo'ng'iroqlar amalga oshirilib, 1.1 mln. dan ortiq mijozlarning 600 mlrd so'mdan ortiq to'lovlari undirilishiga erishildi.

2025-yilda kredit portfeli sifatini yanada yaxshilash bo'yicha quyidagi tashabbuslarni amalga oshirishni rejalashtirmoqda:

1. Yangi muammoli kreditlarni shakllanishini oldini olish maqsadida, kreditlash jarayonlarini samarali doimiy takomillashtirib borish, andarrayting va scoring tizimlarini doimiy yaxshilab borish;
2. Kreditlar monitoringini avtomatlashgan tizimini boyitib borish va kreditlar monitoringini takomillashtirib borish;
3. Avtorobot, sun'iy intellekt, avtoto'lov orqali avtomatlashgan undiruv tizimini rivojlantirib borish;
4. Muammoli kreditlar bo'yicha CRM tizimi, analitik tizim, Field Collection uchun mobil ilovani rivojlantirish;
5. Kreditlarni undirish jarayonlarni takomillashtirish, me'yoriy-huquqiy bazani rivojlantirish;
6. Muammoli kreditlar bilan ishlovchi xodimlar soni va sifatini yaxshilab borish;
7. Balansdan tashqari hisobraqamlardagi kreditlarni 1 trln so'mga yaqin qismini undirish choralari ko'riladi;
8. Bankning axborot tizimlari sud va sud ijrochilari tizimlariga ulanish, ushbu kreditlarning holatini monitoring qilish imkonini yaratish;
9. Bank balansiga olingan garov mulklarini hisobini yuritishning avtomatlashtirilgan dasturini yaratish, ular bo'yicha monitoring olib borish va garov mulklarini (E-auksion, K-Savdo) tizimlari orqali sotish imkoniyatini yaratish.

### 2022-2025-yillarda NPL 90+ dinamikasi+




Bankda olib borilgan samarali harakatlar natijasida 2024-yilda NPL 5 % ga tushishi kutilmoqda (2023-yil yakunlari bo'yicha 7.6%), 2025-yilda ushbu ko'rsatkich 4.2% gacha kamayishi rejalashtirilmoqda.


## Barqarorlik va raqamli rivojlanishni ta'minlash

2023-2024 yilda bankni tijoratlashtirish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirildi, hususan tijoriy kreditlar ulushi 60 foizdan oshirildi, mijozlarning depozitlari va kartalari qoldig'i oshdi. Shu qatorda online kredit va depozitlar hajmi ortishiga erishildi. 2024-yilning 9 oyi davomida 6 367 nafar mijozlarga 283.8 mlrd so'mlik "Moliyaviy ommabop" tijoriy krediti ajratildi.

2025 yilda ham universal xizmatlar ulushini ko'paytirish, shu bilan birga bankning boshqa biznes yo'nalishlari hajmini bir maromda saqlab qolish reja qilingan. 2025-yilda chakana, shuningdek, kichik va o'rta biznes mijozlari uchun yangilangan mahsulot va xizmatlar rentabellik o'sishini rag'batlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'ladi.



2025-yilda bank aktivlarini 15.8 foizga oshirilib, 54 trln so'mga yetkazish rejalashtirilmoqda. Bunda, qimmatbaho qog'ozlar va investitsiyalar miqdori 2025 yilga 16 foizga oshirilib 9.5 trln so'mga yetkazish, sof kredit portfeli (foizlari bilan) 16.5 foizga o'sib, 34.8 trln so'mga yetkazish rejalashtirmoqda.



Bankning jami majburiyatlari 2024 yil kutilmasiga nisbatan 12.6 foizga oshirilib, 42.7 trln so'mga yetkazish rejalashtirilgan. Bunda, depozitlar miqdori 15.8 foizga oshirilib 16.6 trln so'mga yetkazish, kredit liniyalari mablag'lari 20.2 foizga oshirilib, 9.2 trln so'mga yetkazish rejalashtirilmoqda.

Jozibador omonatlar, onlayn depozitlarni targ'ib qilish, mijozlar kartada mablag'larni saqlash va ishlatishga rag'batlantirish hisobiga depozitlar tarkibida aholi talab qilib olinguncha va muddatli depozitlari hajmi 30 foizga, kartalardagi qoldiqlar 18 foizga o'sishi rejalashtirilgan. (2025-moliya

uchun aktivlar, majburiyatlar, daromad va xarajatlar rejasi bo'yicha batafsil ma'lumot 1 va 2-ilovada keltirilgan).

Muqobil kanallar orqali amalga oshiriladigan amaliyotlar ko'lamini kengaytirish, o'ziga-o'zi xizmat ko'rsatish uskunolari samaradorligini oshirish, hamda mijozlar ko'rsatiladigan xizmatlar xajmini oshirish hisobiga vositachilik daromadlari xajmini 10 foizga oshirish yoki 611 mlrd so'mga yetkazish rejalashtirilgan.

2025-yil uchun rejalashtirilgan kapital xarajatlar 751.5 milliard so'mni tashkil etadi va bu mablag'ning asosiy qismini "Yagona MFO"ga o'tish munosabati bilan filiallarni bo'shab qolgan katta binolaridan kichik ixcham Bank xizmatlari markazlariga ko'chirish uchun, hamda mijozlarga qulayliklar yaratish maqsadida yangicha brendbuk asosida ta'mirlash, Bosh bank ofisi qurilish bitmagan qismini davom ettirish va IT infratuzilmasini yaxshilash xarajatlari tashkil etadi. Kelgusi yil uchun biznes rejaga bir nechta muhim loyihalar kiritilgan:

1. Aholiga o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish xizmatlari ko'lamini kengaytirish maqsadida avtomatlashtirilgan depozit mashinalari sotib olish hamda aholi zich joylashgan hududlarda o'rnatish.
2. Mobil banking. Mijozlarimizni xalqaro standartlarga javob beradigan yuqori sifatli bank mahsulotlari bilan ta'minlash maqsadida 2022-yilda ishga tushirilgan bankning "Xazna" mobil ilovasini yanada rivojlantirish.
3. AKT ishlab chiqarish va rivojlantirish (biznes loyihalari va o'sishni qo'llab-quvvatlash uchun IT imkoniyatlarini yaratish). Mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish maqsadida axborot tizimlarini rivojlantirib borish.
4. Barcha segmentlar uchun CRM loyihasi va savdo imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida call-markaz faoliyatini rivojlantirish. Mazkur loyihalarni hamda muammoli kreditlarni undirishni yaxshilash uchun sun'iy intellekt (AI)ga asoslangan dasturlarni joriy etish;
5. Ijtimoiy hamda xalqaro bank kartalarini emissiya qilish uchun apparat moduli, savdo terminallari sotib olish;
6. Markazlashgan kassalar ishini samarali tashkil etish maqsadida zaruriy texnikalar bilan ta'minlash;
7. Bankda rejalashtirish, samaradorlikni oshirish, xarajatlarni to'g'ri taqsimlashni ilg'or xalqaro tajribalardan va bankning o'ziga xosligidan kelib chiqib metodoliyalarini va hisob-kitoblarini amalga oshirish mexanizmlarini joriy qilish;
8. Shaxmatni ommalashtirish maqsadida tashkil qilingan Bankning shaxmat klubi faoliyatini qo'llab-quvvatlash;
9. Islomiy moliyalash mahsulotlarini joriy qilish uchun zaruriy texnik va metodologik sharoitlar yaratish va boshqalar.

2025 yil uchun operatsion hamda kapital xarajatlar bo'yicha batafsil ma'lumotlar 3-4-ilovalarda keltirilgan. 3-4-ilovalarda ko'rsatilgan xarajatlar Bank Boshqaruvi qarori bilan jami xarajatlar doirasida ko'rsatkichlar o'rtasida qayta taqsimlanishi mumkin (3-ilovadagi operatsion xarajatlar uchun umumiy operatsion xarajatlarning 10 foiz miqdoridan oshmagan holda).

Ushbu tashabbus va loyihalarining amalga oshirishdan maqsad, yuqorida ta'kidlanganidek mijozlarga qulayliklar yaratish, biznes jarayonlarini optimallashtirish, raqamli xizmatlar turlari va xajmini oshirish, muqobil kanallarni kengaytirish orqali Xalq bankida xizmat ko'rsatish sifatini yangi bosqichga olib chiqish va uni universal bankka aylantirishga yordam beradi.

1-ilova

## 2025-moliyaviy yil balans ko'rsatkichlari

| <i>mlrd so'm</i>                      |                            |
|---------------------------------------|----------------------------|
| <b>Ko'rsatkichlar</b>                 | <b>31.12.2025<br/>reja</b> |
| <b>Jami aktivlar</b>                  | <b>53 942</b>              |
| Naqd pullar                           | 2 154                      |
| Banklardagi mablag'lar                | 4 320                      |
| Qimmatli qog'ozlar va investitsiyalar | 9 497                      |
| Kreditlar (netto)                     | 34 852                     |
| - Kreditlar (brutto) va foizlar       | 36 938                     |
| - Zaxiralar                           | -2 087                     |
| Asosiy vositalar va boshqa mulklar    | 2 577                      |
| Boshqa aktivlar                       | 542                        |
| <b>Jami majburiyatlar</b>             | <b>42 681</b>              |
| Bank kartalari va depozitlar          | 19 720                     |
| Banklararo mablag'lar                 | 3 062                      |
| Kredit liniyalari                     | 9 216                      |
| JBPTT mablag'lari                     | 9 826                      |
| Boshqa majburiyatlar                  | 857                        |
| <b>Jami kapital</b>                   | <b>11 261</b>              |

2-ilova

## 2025-moliyaviy yil moliyaviy natijalar ko'rsatkichlari

*mlrd so'm*

| Ko'rsatkichlar                 | 31.12.2025<br>reja |
|--------------------------------|--------------------|
| <b>Operatsion daromadlar</b>   | <b>4 014</b>       |
| <b>Foizli daromadlar*</b>      | <b>7 192</b>       |
| <i>Kreditlar</i>               | <i>5 418</i>       |
| <i>Banklardagi mablag'lar</i>  | <i>508</i>         |
| <i>Qimmatli qog'ozlar*</i>     | <i>1 267</i>       |
| <b>Foizli xarajatlar</b>       | <b>-4 182</b>      |
| <i>Depozitlar</i>              | <i>-1 847</i>      |
| <i>JBPTT mablag'lari</i>       | <i>-1 320</i>      |
| <i>Kredit liniyalari</i>       | <i>-757</i>        |
| <i>Banklar mablag'lari</i>     | <i>-146</i>        |
| <i>Qimmatli qog'ozlar</i>      | <i>-90</i>         |
| <i>Subordinar qarzlar</i>      | <i>-22</i>         |
| <b>Foizsiz daromadlar, sof</b> | <b>1 004</b>       |
| <i>Komissiyalar</i>            | <i>611</i>         |
| <i>Valyuta kursi farqidan</i>  | <i>109</i>         |
| <i>Boshqa</i>                  | <i>285</i>         |
| <b>Operatsion xarajatlar</b>   | <b>-2 355</b>      |
| <b>Zaxiralar, sof</b>          | <b>-1 125</b>      |
| <b>Sof foyda</b>               | <b>534</b>         |

\* shu jumladan qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizsiz daromadlar

### 3-ilova

## 2025-moliyaviy yil operatsion xarajatlari

Jami operatsion xarajatlarning 10 foizidan oshmagan holda ushbu jadvalda belgilangan ko'rsatkichlarga o'zgartirishlar kiritish va qayta taqsimlash Bank Boshqaruvi qarori bilan amalga oshiriladi.

*mlrd so'm*

| <b>Xarajatlar</b>                               | <b>31.12.2025<br/>yil reja</b> |
|-------------------------------------------------|--------------------------------|
| <b>Operatsion xarajatlar</b>                    | <b>-2 355</b>                  |
| Xodimlar ish haqisi va boshqa xarajatlari       | -1 394                         |
| Ijara, kommunal, ta'minot va qo'riqlash         | -272                           |
| Ma'muriy xarajatlar                             | -222                           |
| Xayriyalar va xomiylik                          | -29                            |
| Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar eskirishi | -257                           |
| Soliqlar (foyda solig'isiz)                     | -73                            |
| Boshqa operatsion xarajatlar                    | -109                           |

## 4-ilova

## 2025-moliyaviy yil kapital xarajatlari

Jami kapital xarajatlardan oshmagan holda ushbu jadvalda belgilangan ko'rsatkichlarga o'zgartirishlar kiritish va qayta taqsimlash Bank Boshqaruvi qarori bilan amalga oshiriladi

*mlrd so'm*

|                                                                                                                                                |            |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| <b>IT, mebel va uskunalar</b>                                                                                                                  | <b>191</b> |
| Serverlar (ABS sistemasi, card processing markazi, va boshqalar uchun)                                                                         | 76         |
| Filiallar tarmoqlarini yangilash (kompyuterlar, mebel, arxiv uskunolari, xavfsizlik tizimlari va boshqalar)                                    | 93         |
| Boshqa uskunalar (sun'iy intellekt vositasi (hardware), chakana savdo loyihalari)                                                              | 22         |
| <b>Dasturiy ta'minot va litsenziyalar</b>                                                                                                      | <b>134</b> |
| Loyihalar (CRM, Islamic banking, FTP, "Xazna" ilovasining rivojlanishi va boshqalar)                                                           | 57         |
| ICT dasturiy ta'minoti, qayta ishlash, boshqa dasturlar (xavfsizlik, komplaens bo'limi, pensiya jamg'armasi, va boshqalar.)                    | 77         |
| <b>Bank kartalari va bankomatlar uskunolari (24/7 bankomatlar uchun uskunalar, elektron seyflar, naqd pul yig'ish uskunolari va boshqalar)</b> | <b>150</b> |
| <b>Binolar va avtotransport vositalari</b>                                                                                                     | <b>70</b>  |
| <b>Qurilish</b>                                                                                                                                | <b>207</b> |
| <b>Jami kapital xarajatlar</b>                                                                                                                 | <b>752</b> |